

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DIN ISHLARI BO'YICHA
QO'MITASI**

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi 12-uy
Tel: +998 (71) 207-17-58 info@religions.uz
www.religions.uz



**COMMITTEE OF RELIGIOUS
AFFAIRS REPUBLIC OF
UZBEKISTAN**

12, Navoi str., Tashkent, 100011
Phone: +998 (71) 207-17-58 info@religions.uz
www.religions.uz

2026-y. «16» 06

№ 02-16/4940

« » 2026 г.

“Yuksalish” harakati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-124-son Farmonining 7-bandi ijrosi doirasida Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Jamoatchilik kengashi vakillari ishtirokida ochiq muloqot o'tkazilganini ma'lum qilamiz.

Ilova: 5 varaqda.

Raisning birinchi o'rinbosari

D.Maxsudov

*Ijrochi: N.Saydullayev
Tel: 71-207-17-58 (140)*

“TASDIQLAYMAN”

**Din ishlari bo'yicha qo'mita
raisining birinchi o'rinbosari**

D.Maxsudov

2026-yil 10-aprel

**Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig'ilishining
OCHIQ MULOQOT BAYONI**

2026-yil 10-aprel

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Din ishlari bo'yicha qo'mitasi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi
o'rinbosari **D.Maxsudov**

Qatnashdilar:

Qo'mita huzuridagi Jamoatchilik
kengashi a'zolari, Din ishlari bo'yicha
qo'mita xodimlari, Korrupsiyaga
qarshi kurashish agentligi mas'ul
xodimlari, ommaviy axborot vositalari
vakillari

KUN TARTIBI:

**Diniy-ma'rifiy sohadagi so'nggi yillardagi islohotlar, 2026-yilning
“Korrupsiyadan holi favqulodda holat yili” sifatida e'lon qilinishi
doirasida dolzarb masalalar muhokamasi to'g'risida**

Kun tartibi:

1. Diniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan islohotlarning samaradorligi va ularning jamiyat hayotidagi o'rni
2. “Korrupsiyadan holi favqulodda holat yili” doirasida tizimda shaffoflikni ta'minlash
3. Yoshlar ongida sog'lom diniy qarashlarni shakllantirish va radikalizmning oldini olish
4. Mahallalarda diniy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish
5. Ommaviy axborot vositalari va internet makonida diniy mazmundagi kontent sifati
6. Aholi murojaatlarida ko'tarilgan dolzarb masala: diniy bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ochiqlikni ta'minlash

Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari D.Maxsudov — Bugungi ochiq muloqot mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar fonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, diniy-ma‘rifiy soha jamiyat barqarorligi, ma‘naviy uyg‘onish va ijtimoiy birdamlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. 2026-yilning “Korrupsiyadan holi favqulodda holat yili” sifatida e‘lon qilinishi esa har bir tizimdan mutlaqo yangicha yondashuv, ochiqlik va halollikni talab etadi.

Rais o‘rinbosari, shuningdek, davlat rahbarining Murojaatnomasida ilgari surilgan “inson manfaatlari va ochiqlik ustuvorligi” tamoyiliga alohida to‘xtalib, aynan diniy-ma‘rifiy sohada bu prinsiplar hayotiy zaruratga aylanishi lozimligini ta‘kidladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimi Sh.G‘ulomov — Korrupsiyaga qarshi kurash masalasi faqat nazorat bilan emas, balki ma‘naviy immunitetni kuchaytirish orqali ham hal etilishi lozim. Halollik va vijdon masalalari diniy-ma‘rifiy ishlarning markazida bo‘lishi kerak.

Uning ta‘kidlashicha, har bir xodim o‘z faoliyatida nafaqat qonun, balki ichki mas‘uliyat hissiga ham tayanishi zarur.

Jamoatchilik kengashi a‘zosi A.Agzamov — Yoshlar masalasi eng dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Yoshlarning diniy bilimga bo‘lgan qiziqishini to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni turli zararli g‘oyalardan himoya qilish bugungi kunning ustuvor vazifasidir.

Uning fikricha, bu borada nafaqat ta‘lim muassasalari, balki oila va mahalla institutlari ham faol ishtirok etishi zarur.

Mahallalarda diniy-ma‘rifiy ishlar hali ham bir xil darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Ba‘zi hududlarda bu ishlar faollik bilan olib borilayotgan bo‘lsa, ayrim joylarda sustkashlik kuzatilmoqda. Shu sababli, hududlar kesimida monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish va ilg‘or tajribalarni ommalashtirish taklif etildi.

Jamoatchilik kengashi a‘zosi B.Kadirov — Diniy-ma‘rifiy sohadagi islohotlar nafaqat tashkiliy, balki mazmunan ham yangilanishni talab etadi. Bugungi kunda asosiy e‘tibor inson ongini yuksaltirishga qaratilishi zarur. Shu nuqtai nazardan, diniy bilimlarni berishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ochiq platformalarni joriy etish muhim.

U, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashishda ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish va har bir qarorning jamoatchilikka ochiq bo‘lishi lozimligini qayd etdi.

Aholidan kelib tushayotgan murojaatlarda diniy bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi ko'p uchramoqda. Bu esa mavjud tizimni yanada ochiq va qulay qilish zaruratini ko'rsatadi. Xususan, qisqa muddatli kurslar, onlayn darslar va ochiq muloqot maydonlarini tashkil etish taklif qilindi.

Yana bir masala, internet va ijtimoiy tarmoqlarda diniy mazmundagi kontent sifati jiddiy e'tibor talab qiladi. Noto'g'ri yoki yuzaki talqinlar jamiyatda chalkashliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, mutaxassislar ishtirokida sifatli va ishonchli kontent yaratish, rasmiy platformalarni rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi.

Muloqot so'ngida tadbir ishtirokchilari tomonidan mavzuga doir berilgan savollarga kengash a'zolari tomonidan javoblar berildi. Yig'ilishda Farmonning amaliy natijalari, u orqali joriy etilayotgan yangi mexanizmlar va imkoniyatlar haqida chuqur tahliliy fikr almashildi. Takliflar to'plandi va ular asosida kengash tomonidan tavsiyalar shakllantiriladi.

Yig'ilish davomida muhokama qilingan masalalar va maruzalardan kelib chiqib, **Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Jamoatchilik kengashi**

QAROR QILADI:

- 1. Diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha aniq amaliy choralar ishlab chiqilsin;**
- 2. "Korrupsiyadan holi favqulodda holat yili" doirasida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash mexanizmlari kuchaytirilsin;**
- 3. Yoshlar bilan ishlashda innovatsion va interaktiv usullar keng joriy etilsin;**
- 4. Mahallalarda diniy-ma'rifiy ishlar monitoringi yo'lga qo'yilsin;**
- 5. Internet makonida sifatli diniy kontent yaratish va tarqatish tizimi rivojlantirilsin.**

Yakuniy so'z:

Kengash raisi o'rinbosari ochiq muloqot yakunida ta'kidladi:

Bugungi muhokamalar shuni ko'rsatdiki, diniy-ma'rifiy soha – bu faqat targ'ibot emas, balki jamiyatning ma'naviy tayanchi hisoblanadi. Undagi har bir islohot inson qalbi va ongiga yetib borishi bilan ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ochiq muloqot keng jamoatchilik uchun yangi bosqich – ochiqlik, muloqot va hamkorlik davrining amaliy ifodasi bo'ldi.

Yig'ilish kotibi

N.Saydullayev



